O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

6. Ma’ripov, J. (2022). ANTROPOSENTRIZM–TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YONALISHI SIFATIDA. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(28), 62-68.

7. LEARNER, I. Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, The faculty of psychology, The teacher at the department of Foreign languages.

8. Tolibovna, A. K. (2022). Functions of Allusion and Allusion as a Marker of Intertextuality and Precedence. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 485-487.

ER -XOTIN O‘RTASIDAGI NIZOLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ruzmatova Dilnoza Tirkashevna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada er-xotin o‘rtasidagi nizolarning ijtimoiy - psixologik xususiyatlari, ularning kelib chiqish sabablari, oilaviy nizolarning turlari, nizolarga sabab bo‘luvchi omillar ularni oldini olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, er-xotin, destruktiv nizo, konstruktiv nizo, befarqlik, achchiqlanish, o‘zaro munosabat, mojaro, kelishmovchilik.

Oila jamiyatning bo‘g‘ini va bir bo‘lagidir. Insoniyat boshidan kechirgan davrlar shunchalik o‘zgacha va murakkab bo‘lishiga qaramay, XIX-XX asrlarda ro‘y bergan buyuk o‘zgarishlarga dosh bergani jamiyat oldida turgan majburiyatlarini ado etgan sog‘-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil qilganligini va oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardan tashkil topganligini hisobga olib ,buni psixologik jarayonlar maskani deb atasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu o‘rinda ushbu jumlani keltiramiz. ,, Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerakki : oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi barchamiz jipslashib , tinimsiz o‘qib , o‘rgansak ishimizni mukammal va unumli bajarsak,albatta hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi“[1.9], degan gaplarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisga Muroja’atnomasida aytib o‘tganlar.

Darhaqiqat, zamonaviy bilimlarni olishga intilsak, bu ziddiyatlar qarama-qarshi maqsadlar,fikrlar qarashlar g‘oyalar, manfa’atlar, fikrlarning to‘qnashuvini oldini olgan oila a’zolar o‘rtasidagi nizolarning keskin tarzda kamayishiga olib kelgan bo‘lar edi. Shu bilan birga oila a’zolar o‘rtasidagi munosabatlar farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham o‘z ta'sirini o‘tkazar ekan, bu munosabatlarni yaxshilanishiga olib kelgan bo‘lar edi. Oilada har-bir a’zoning o‘ziga xos majburiyatlari va burchlari bor. Mana shunday burch va majburiyatlarni o‘z vaqtida tushunish va amalga oshirish munosabatlarni yaxshilash va paydo bo‘ladigan nizolarni oldini olishga yordam beradi.

Aslini olganda oilaviy nizolar kimlar ishtirok etishiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi.

1.Er-xotin o‘rtasidagi nizolar

2.Qaynona- kelin o‘rtasidagi nizolar

3.Qaynona -kuyov o‘rtasidagi nizolar

4 .Ovsinlar o‘rtasidagi nizolar

5. Farzandlar o‘rtasidagi nizolar[2].

Biz hozirgi kunda eng tarqalgan er-xotin o‘rtasidagi nizolarni atroflicha yoritishga harakat qilamiz. Har bir oila borki unda albatta nizo bor. Shuni alohida ta'kidlab o‘tish kerakki, oilada o‘zini burch ilm ma'suliyatini tushunib anglab yetmagan bo‘yniga olmagan erkak oilani farovonlogini ta'minlay olmaydi. Turmush o‘rtog‘ini xursand baxtli qila olmaydi. Bu muammo esa o‘z navbatida farzandlar kelajagiga o‘z navbatida yaxshigina ta'sir o‘tkazadi, turmush o‘rtog‘ini orzu havaslariga ham bu ta'sir o‘tkazmay qolmaydi va shu bilan birgalikda turmush o‘rtogining kutuvlariga real hayotning mos emasligi ham muhim o‘zini rol o‘ynaydi. Shu jumladan er-xotin munosabatlardagi nizolarni turlarini keltirib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Demak , quyida nizo turlarini keltirib o‘tamiz.

1. **Konstruktiv to‘qnashuvlar**. Turli sabablarga ko‘ra bunday to‘qnashuvlar mavjud, ammo ularning yechimi ikkala tomonga qoniqish hissi tug‘diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o‘zaro kelishmovchiliklarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada nizo bo‘ladimi natijasi doimo gullab yashnaydi.

2. **Yomon nizolar**. Bunday to‘qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ko‘p yillar davomida davom ettirishga, nikohlari bilan qoniqish hissini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi. Bunday to‘qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin[3].

Darhaqiqat, biz shuni aytishimiz mumkinki , nizolar ham o‘z o‘rnida nafaqat yomon , balki yaxshi nizolarga ajratishimiz mumkin. Bunday nizolar oxir oqibat nizoni qanday yakunlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday nizolar mavjudki, muammoni mohiyati asl sababi topilganidan so‘nggina nizolar konstruktiv ya’ni yechimi yaxshilik bilan tugaydi deb ayta olishimiz mumkin.

Shu o‘rinda er va xotin g‘rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bg‘luvchi hissiyotlarga olimlar quyidagilarni kiritib o‘tganlar: **achchiqlanish –** oilaviy hayotda kg‘p uchraydi, chunki u g‘zaro g‘amxg‘rlik va bog‘liqlik kamaygan sharoitlarda g‘z-g‘zidan paydo bg‘ladi; F. Perlzning yozishicha,,,Vaqti-vaqti bilan bir-biridan achchiqlanib turish – demak, bir-birini sevish va g‘zaro muomalaga bg‘lgan intiqlikdir”, aybdorlik – g‘zining qilmishi uchun g‘ch olishday gap, kg‘pincha bu hissiyot ataylab namoyon etiladi, arazlash – turmush g‘rtog‘idan g‘ch olish maqsadida namoyon etiladigan his-tuyg‘u;

nafrat – turmush g‘rtog‘iga gg‘yoki dushmaniga qaraganday muomala qilish, tanqid qilish – qg‘rqoqlikka g‘xshaydi, aniq munosabatlarning xarakterini namoyon etishga imkon bermaydi, SHostromning fikricha, bu hissiyot achchiqlanishga g‘tgani ma’qul, turmush g‘rtog‘idan yiroqlashish, ketib qolish – bu ham ma‘lum ma‘noda

bir-birini nazoratda ushlashning bir kg‘rinishi, lekin vaziyatni aniq oydinlashtirib olishga xalaqit beradi;

befarqlik – umuman munosabatlarni yashiruvchi xis bg‘lgani uchun u aloqalarning yomonlashib ketishini tezlashtiradi, hattoki, bunda psixoterapevtik yordam berish ham mushkul bg‘lib qoladi[4].

Darhaqiqat ,achchiqlanish oilada bir biriga nisbatan e’tibor va mehr yetishmaganda paydo bo‘ladi va bu ko‘rinish ayollarimizda araz sifatida oilalarimizda namoyon bo‘lishi mumkin. Nafrat qachonki paydo bo‘ladi oilalarda buni biz orada paydo bo‘ladigan nizolar kattalashib borgan sari er-xotin nizolarida nafrat paydo bo‘ladi va bu bora-bora oilalarni ajralib ketishiga va farzandlarni yetim qolishiga ham sababchi bo‘ladi.O‘z o‘rnida befarqlik ham er-xotin orasidagi munosabatlarni ayanchli ahvolga olib keladi va bir -biridan ajjralishiga sabab bo‘ladi.

Mana shunday salbiy munosabatlar er-xotin o‘rtasida nizolariga sabab bo‘lib kelmoqda..Bu esa ular o‘rtasidagi munosabatlarning destruktiv yoki konstruktiv nizolarga sabab bo‘ladi. Nizoning turiga qarab bunda oila yoki mustahkamlanadi yoki er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni jiddiy tus olishiga olib keladi.

Shu o‘rinda er-xotin nizolarini bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalarni berib o‘tamiz:

1.Nizo paydo bo‘lgan paytda hech kimni aralshuviga yo‘l qo‘ymang, o‘zingiz hal qilishga harakat qiling.

2.Nizoga borgan paytingiz ovoz ohangiga e’tibor qarating ,zero nizoni hal qilishga ovoz ohangiga ham bog‘liq.

3. Nizo paydo bo‘lgandan so‘ng bittangiz faqat u joyni tark eting.

4. Tinch sokin joyda nizoni hal qilishga harakat qiling.

5. Mojaro paydo bo‘lganda bir -biringizni tinglashga harakat qiling.

6. Farzandlaringiz oldida also janjallasha ko‘rmang.

7. Muammoning asl mohiyatini tushunib yetishga harakat qiling.

8. Muammo paydo bo‘ldimi ,bir-biringizga hurmatni saqlagan holda muammoga yondoshishga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ilm ma’rifat va raqamli iqtisodiyot porloq kelajagimiz.T,,Zamin nashr “-2020 yil 9-bet

2. G.R.Qarshiboyeva,U.R.Ibaydullayeva - Oila psixologiyasi o‘quv qo‘llanma T.,,Bayoz “,2022 144-bet.

3. https://images.app.goo.gl/2J9e3RcXX3rjqEUK6https://cyberleninka.ru

4. Vasila Karimova. Oila Psixologiyasi .Darslik.Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. T:2007 76-bet

5. У. Ибайдуллаева, М. Тиркашева, Г.Одилова Семейные разводы-как фактор общественного кризиса Вестник интегративной психологии. Выпуск 31, Бухара-, Россия. 2023.

6. U.Ibaydullayeva. Oiladagi er va xotin o‘zaro munosabatlari borasida sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.

7. U.Ibaydullayeva, M.Tirkasheva Oilaviy nizolar va ajrimlar – jamiyat zavoli Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman Jizzax-2023 2-qism.
8. Ayol, oila va jamiyat / Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari / F. Otaxonov. – T.: 2007 – 260 b.

OILALARDA YUZAGA KELAYOTGAN ER-XOTIN O‘RTASIDAGI AJRIMLARNING JAMIYAT UCHUN SALBIY OQIBATLARI

ps.f.f.d. Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna,
Tirkasheva Mavluda Akramovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilalarda er-xotin o‘rtasida yuz berayotgan ajrimlari haqida so‘z yuritilib, unda oila va nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari, ajrimlarning jamiyat uchun salbiy oqibatlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o‘rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Oila va nikoh munosabatlari, er-xotin, oilaviy hayotga tayyorlash, milliy o‘ziga xoslik, nizolar, ajralishlar, salbiy asoratlar.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom muhitni yaratish, oila qadriyatlari va oiladagi shaxslararo munosabatlarini shakllantirish orqali oilaviy munosabatlarini barqarorlashtirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Darhaqiqat, oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi sanaladi. Har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan hamda oilasida ijobiy muhit hukm surgan insongina o‘zini to‘laqonli baxtiyor his eta oladi. Afsuski, oilalarda yuzaga kelayotgan er-xotin o‘rtasidagi yuzaga kelayotgan oilaviy ajrimlar farzandlarning ko‘ngli kemtik, hayotdan alamzada bo‘lib voyaga yetishi yoki zararli odatlarga ruju qo‘yishi, jinoyat ko‘chasiga kirishiga sabab bo‘layotgani haqida qancha gapirilmasin, oila muqaddasligi, sha’ni, obro‘si, an’ana va qadriyatlariga hurmat hissi sayozlashib borayotgani achinarli holdir. Bu borada muhtaram prezidentimiz ham juda ko‘p bor ta’kidlab o‘tadilar. Jumladan, “Avvallari biror oila ajrashsa, mahallada duv-duv gap bo‘lardi, butun mahalla oyoqqa turardi. Ajrim — bu katta fojia. Albatta, barchamizning istagimiz, tilagimiz bitta: qani endi, yurtimizda ajrim degan noxush holatning o‘zi bo‘lmasa. Oilalar parokanda, bolalar tirik yetim bo‘lib, sarson-sargardon bo‘lmasa. Men bir fikrni qayta-qayta aytishdan charchamayman. Oila — bu mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne’mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor”, — deya ta’kidlaydi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev.[1] Haqiqatdan ham bir oilaning barbod bo‘lishi jamiyat uchun bu juda katta inqiroz sanaladi. Birgina ajrim tufayli oilalar parokanda, farzandlar yetim bo‘lib qolmoqda. Bunday holatlar yuzaga kelishini oldini olish